



O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIKKA KIRISHI VA TASHQI SAVDO SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI

**Normatov
Firdavs**

*TDIU Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
Xalqaro Moliya yo'nalishi 1-bosqich magistranti
firdavsjohn8@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2643-9682*

Аннотация

Ushbu maqola O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka kirish jarayoni hamda mazkur jarayonning mamlakat tashqi savdo siyosatini transformatsiyalashdagi o'rnini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asosiy maqsad JST qoidalari va tamoyillarining O'zbekiston tashqi savdo siyosatiga ta'sirini aniqlash, savdo liberallashtirish, bojxona-tarif siyosati va institutsional islohotlar yo'nalishidagi o'zgarishlarni baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida JSTga yangi a'zo bo'lgan davlatlarning tajribasi o'rganilib, ularning amaliyoti asosida O'zbekiston uchun dolzarb bo'lgan imkoniyatlar va ehtimoliy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, JSTga a'zolik tashqi savdo jarayonlarida shaffoflikni oshiradi, xalqaro savdo munosabatlariga integratsiyani jadallashtiradi hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini JST talablariga moslashtirish zarurati mavjudligi aniqlanadi. Maqola natijalari tashqi savdo siyosatini shakllantiruvchi davlat organlari, iqtisodiy tahlilchilar hamda oliy ta'lim muassasalari uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Jahon Savdo Tashkiloti (JST), tashqi savdo siyosati, savdo liberallashtirish, bojxona-tarif siyosati, institutsional islohotlar, eksport salohiyati, xalqaro savdo integratsiyasi, savdo shaffofligi.

ВСТУПЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЕГО ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу процесса вступления Узбекистана во Всемирную торговую организацию (ВТО) и роли данного процесса в трансформации внешнеторговой политики страны. Основной целью исследования является определение влияния правил и принципов ВТО на внешнеторговую политику Узбекистана, а также оценка изменений в сфере либерализации торговли, таможенно-тарифной политики и институциональных реформ. В рамках исследования изучен опыт стран, недавно вступивших в ВТО,

и на основе их практики проанализированы возможности и потенциальные вызовы, актуальные для Узбекистана. Результаты исследования показывают, что членство в ВТО способствует повышению прозрачности внешнеторговых процессов, ускоряет интеграцию в систему международной торговли и создает благоприятные условия для расширения экспортного потенциала. Вместе с тем выявляется необходимость адаптации механизмов поддержки национальных производителей к требованиям ВТО. Результаты статьи имеют научно-практическую значимость для государственных органов, формирующих внешнеторговую политику, экономических аналитиков и высших учебных заведений.

Ключевые слова: Узбекистан, Всемирная торговая организация (ВТО), внешнеторговая политика, либерализация торговли, таможенно-тарифная политика, институциональные реформы, экспортный потенциал, интеграция в международную торговлю, прозрачность торговли.

UZBEKISTAN'S ACCESSION TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION AND THE TRANSFORMATION OF ITS FOREIGN TRADE POLICY

Abstract. This article analyzes Uzbekistan's accession process to the World Trade Organization (WTO) and the role of this process in transforming the country's foreign trade policy. The main objective of the study is to identify the impact of WTO rules and principles on Uzbekistan's foreign trade policy, as well as to assess changes in trade liberalization, customs tariff policy, and institutional reforms. Within the framework of the study, the experience of countries that have recently acceded to the WTO is examined, and based on their practices, the opportunities and potential challenges relevant to Uzbekistan are analyzed. The research findings indicate that WTO membership increases the transparency of foreign trade processes, accelerates integration into the international trading system, and creates favorable conditions for expanding export potential. At the same time, the need to adapt national producer support mechanisms in line with WTO requirements is identified. The results of the article are of scientific and practical relevance for public authorities responsible for shaping foreign trade policy, economic analysts, and higher education institutions.

Keywords: Uzbekistan, World Trade Organization (WTO), foreign trade policy, trade liberalization, customs tariff policy, institutional reforms, export potential, international trade integration, trade transparency.

KIRISH.

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy iqtisodiy siyosatning samaradorligi hamda mamlakatlarning tashqi savdo strategiyalari Jahon Savdo Tashkiloti kabi ko'p tomonlama xalqaro institutlar bilan uyg'unlashuviga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda. Jahon Savdo Tashkiloti xalqaro savdo tartib-qoidalarini belgilovchi asosiy mexanizm bo'lib, unga a'zolik jarayoni davlatlar tomonidan bojxona bojlari va bojdan tashqari cheklavlarni kamaytirish, savdo

jarayonlarida shaffoflikni oshirish hamda savdoni liberallashtirish yo'lida muhim institutsional qadam sifatida baholanadi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish savdo liberalizatsiyasini mustahkamlash orqali savdo samaradorligini oshiradi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi — bu holat mustaqil davlatlar tajribasida ham o'rganilgan. Masalan, MDPI nashrida chop etilgan tadqiqot Jahon Savdo Tashkilotiga kirish jarayonining Savdo Vazifalari bo'yicha liberal savdo siyosati harakatlarini kuchaytirishi va mintaqaviy savdo dinamikalariga murakkab ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. [1]

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish yo'lidagi sa'y-harakatlari 1990-yillarning oxirlariga borib taqaladi, biroq ichki siyosiy va iqtisodiy islohotlarning faollashuvi natijasida ushbu jarayon 2018-yildan boshlab qayta jadallashti. Bu holat mamlakat tashqi savdo rejimlarini xalqaro standartlarga moslashtirishni, bojxona tartibotlarini isloh qilishni va savdo siyosatini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Mazkur jarayonni jadallashtirish bo'yicha Prezident Shavkat Mirziyoyevning ko'plab qarorlari qabul qilindi. Xususan, Prezident 2024-yil 3-iyun kuni imzolangan farmon bilan bir qator yirik davlat korxonalarining eksklyuziv iqtisodiy huquqlari bekor qilindi va bu qadam «bozor iqtisodiyoti sharoitida teng va raqobatbardosh o'yin maydoni yaratish» maqsadida olib borilayotgan islohotlarning bir qismi sifatida tavsiflandi, bu esa JST talablariga moslashtirish choralaridan biridir. [2]

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 14-may kuni Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikka kirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni shaxsan ko'rib chiqdi hamda ko'p tomonlama va ikki tomonlama muzokaralar, milliy qonunchilikni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini jadallashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi. [3]

O'zbekiston kontekstida Jahon Savdo Tashkiloti a'zolingining tashqi savdo siyosatiga ta'siri bo'yicha so'nggi ilmiy maqolalar ham mavjud. Masalan, Qodirov (2025) WTOga a'zolik O'zbekistonning savdo siyosatini kuchaytirishi, eksport salohiyatini kengaytirishi va ichki bozorlarda raqobat oshishiga olib kelishini qayd etadi. [4]

Jahon Savdo Tashkilotining asosiy tamoyillari — savdoda tenglikni ta'minlovchi eng ko'p qulaylik berilgan davlat printsiplari, savdo siyosatining shaffofligi, bozorlarning ochiqligi hamda boj stavkalarining cheklanishi — mamlakatlarning tashqi savdo siyosatiga yangi majburiyatlar va mexanizmlarni kiritadi. Xalqaro va mintaqaviy maqolalar shuni ko'rsatadiki, WTO a'zoli nafaqat savdo hajmlarini oshiradi, balki davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish orqali raqobat sharoitida milliy ishlab chiqaruvchilarni ham global me'yorlarga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. [5]

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Jumladan, eksport salohiyatining kengayishi, bojxona tartibotlarining modernizatsiyasi va savdo siyosatining xalqaro me'yorlarga moslashtirilishi mazkur jarayonning asosiy natijalari sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, JSTga kirish jarayoni milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalash va ularni

qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirishni ham talab qiladi, chunki savdoni liberallashtirish ayrim tarmoqlarda raqobat bosimini kuchaytirishi mumkin.

Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikka kirish jarayoni hamda mazkur jarayonning mamlakat tashqi savdo siyosatining transformatsiyasiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida Jahon Savdo Tashkiloti qoidalar va tamoyillarining O'zbekistonning savdo siyosati, bojxona-tarif tizimi, savdo liberallashuvi va institutsional islohotlarga ko'rsatadigan ta'siri o'rganiladi, shuningdek, global va mintaqaviy tajribalar asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar va muammolar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka kirish jarayoni va uning mamlakat tashqi savdo siyosatini transformatsiya qilishdagi roli global iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu mavzu savdo liberalizatsiyasi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va davlatlarning xalqaro bozorga integratsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, JST a'zoliq iqtisodiy islohotlarni jadallashtiruvchi muhim institutsional omil sifatida qoraladi.

Xalqaro empirik tadqiqotlar JSTga a'zolik savdo siyosatini liberallashtirish orqali bozorlarning ochiqqligini oshirishi va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Xususan, Miroudot va Shepherd JST mexanizmlari savdo jarayonlarini soddalashtirish orqali mamlakatlarning global qiymat zanjirlariga integratsiyasini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu xulosa JSTga a'zo bo'lishning nafaqat savdo hajmlariga, balki ishlab chiqarish samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi. [6]

JSTga kirishning mintaqaviy savdo oqimlariga ta'siri ham alohida ilmiy e'tiborga ega. Decreux va Fontagné umumiy muvozanat modeli asosida olib borgan tadqiqotlarida JSTga kirish savdo tuzilmasini o'zgartirib, mintaqaviy savdo aloqalarini faollashtirishini ko'rsatadi. Bu natija JSTga a'zolik nafaqat ikki tomonlama, balki mintaqaviy integratsiya jarayonlarini ham kuchaytirishini anglatadi. [7]

Rivojlanayotgan davlatlar uchun JSTga a'zolik alohida ahamiyat kasb etadi. Bown va Crowley JST mexanizmlarining eksportni rag'batlantirishdagi rolini tahlil qilib, JST nizolarni hal etish tizimi va savdo qoidalarining barqarorligi eksportchilar uchun prognoz qilinadigan muhit yaratishini ko'rsatadi. Bu yondashuv O'zbekiston kabi transformatsiya jarayonidagi davlatlar uchun JSTga kirish eksportni ko'paytirish va iqtisodiy modernizatsiyani tezlashtirish imkonini berishini anglatadi. [8]

MDH mamlakatlari misolida JSTga a'zolikka kirishning institutsional ta'siri ham chuqur o'rganilgan. Tomskiy MDH davlatlarida JSTga a'zolik jarayoni savdo siyosati islohotlari bilan bir vaqtda institutsional transformatsiyani talab qilishini ta'kidlaydi. Bu xulosa O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, JSTga kirish faqat tariflarni pasaytirish emas, balki davlat boshqaruvi, bojxona va raqobat siyosatini tubdan isloh qilishni talab etishini ko'rsatadi. [9]

O'zbekiston kontekstida JSTga a'zolik masalasi so'nggi yillarda mahalliy olimlar tomonidan faol tadqiq qilinmoqda. Qodirov O'zbekistonning JSTga kirishi eksport salohiyatini kengaytirishi, ichki bozorda raqobatni kuchaytirishi va savdo

siyosatini zamonaviylashtirishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv JSTga a'zolik O'zbekistonning tashqi savdo strategiyasini global standartlarga moslashtirishda muhim katalizator bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. [10]

Umuman olganda, xalqaro, mintaqaviy va milliy adabiyotlar tahlili JSTga a'zolik mamlakatlar tashqi savdo siyosatini liberallashtirishi, institutsional islohotlarni tezlashtirishi hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini yaqqol namoyon etadi. Bu xulosalar O'zbekistonning JSTga kirish jarayonining strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka kirish jarayoni hamda ushbu jarayonning mamlakat tashqi savdo siyosati, bojxona-tarif tizimi, savdo liberallashtiruvchi va institutsional islohotlarga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot JST qoidalari va tamoyillarining O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga moslashuvi jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar va ehtimoliy muammolarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, nazariy, tahliliy va qiyosiy usullar uyg'unligida olib borildi. Dastlab JSTning huquqiy bazasi, jumladan, MFN (eng ko'p qulaylik berilgan davlat), milliy rejim, savdo shaffofligi va boj tariflarini cheklash tamoyillari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda JSTning rasmiy hujjatlari, shuningdek Scopus, Web of Science va Google Scholar bazalarida indekslangan xalqaro nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar o'rganildi. Empirik tahlil doirasida JSTga so'nggi yillarda a'zo bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar va MDH mamlakatlarining tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, savdo hajmlari, bojxona tariflari darajasi, eksport tarkibi va savdo siyosati islohotlari JSTga kirishdan oldin va keyingi davr kesimida solishtirildi. Bu jarayonda qiyosiy-statistik tahlil va "before-after" yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot yakunida olingan natijalar asosida O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayonini samarali boshqarish, savdo siyosatini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka kirish jarayoni mamlakat tashqi savdo siyosati va institutsional tuzilmasida chuqur o'zgarishlarni boshlab bermoqda. Tadqiqot doirasida o'rganilgan xalqaro tajriba, empirik adabiyotlar va O'zbekistonning amaldagi islohotlari tahlili JSTga a'zolikning iqtisodiy hamda institutsional samaralari aniq namoyon bo'layotganini ko'rsatdi.

Birinchidan, JST tamoyillarining joriy etilishi O'zbekiston savdo siyosatida shaffoflik va prognoz qilinuvchanlikni oshirmoqda. Eng ko'p qulaylik berilgan davlat (MFN) va milliy rejim prinsiplari import va eksport tartibotlarida diskriminatsiyani cheklab, xorijiy investorlar va savdo hamkorlari uchun barqaror muhit yaratmoqda. Prezident farmonlari bilan yirik davlat korxonalarining eksklyuziv huquqlarining bekor qilinishi raqobat muhitini kuchaytirib, ichki bozorni JST talablariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Bu holat import o'rnini bosuvchi tarmoqlarni samarasiz himoyalashdan voz kechish va resurslarni raqobatbardosh sohalarga yo'naltirish imkonini bermoqda.

Ikkinchidan, JSTga a'zolikka tayyorgarlik jarayoni bojxona-tarif tizimini isloh qilishni jadallashtirdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boj stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi va bojxona tartibotlarining soddalashtirilishi O'zbekistonning tashqi savdo xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa eksportchilarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, ayniqsa to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qayta ishlash sanoati kabi tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, JSTga kirgan rivojlanayotgan davlatlarda savdo hajmining o'rtacha o'sishi 10–20 foiz oralig'ida bo'lganligi kuzatilgan bo'lib, O'zbekiston uchun ham shunga o'xshash ijobiy dinamikani kutish mumkin.

Uchinchidan, JST qoidalariga moslashuv institutsional islohotlarni chuqurlashtirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqobat siyosati, davlat yordamlari (subsidiyalar), texnik reglamentlar va savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlarini tartibga solish sohalarida olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotning bozor mexanizmlariga asoslanganligini kuchaytirmoqda. Bu jarayon qisqa muddatda ayrim tarmoqlarda raqobat bosimini oshirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatining oshishiga olib keladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonning JSTga a'zolikka kirish jarayoni mamlakat tashqi savdo siyosatini liberallashtirish, institutsional islohotlarni jadallashtirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim katalizator bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Agar mazkur jarayon milliy manfaatlarni himoyalash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moslashuv davrida qo'llab-quvvatlash va JST talablarini izchil joriy etish bilan uyg'unlashtirilsa, O'zbekistonning global savdo tizimidagi o'rnini mustahkamlanib, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirish va savdo liberalizatsiyasi sharoitida O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zolikka kirishi mamlakat tashqi savdo siyosatini tubdan yangilash va uni xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim strategik omil bo'lib xizmat qilmoqda. JSTga a'zolik nafaqat tarif va notarif cheklovlarni qisqartirish orqali savdo hajmlarini oshirishga, balki savdo siyosatining shaffofligi, prognoz qilinuvchanligi va raqobatbardoshligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro va mintaqaviy tajriba, shuningdek O'zbekiston bo'yicha mavjud empirik dalillar JSTga moslashuv jarayoni eksport salohiyatining kengayishi, global qiymat zanjirlariga integratsiya va ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga zamin yaratishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatadiki, JST qoidalarini joriy etish O'zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni jadallashtirib, raqobat siyosati, bojxona tartibotlari, davlat yordamlari va texnik reglamentlar sohasida bozor mexanizmlariga asoslangan tizimni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon qisqa muddatda ayrim tarmoqlarda raqobat bosimini kuchaytirishi mumkin, biroq uzoq muddatli istiqbolda mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport diversifikatsiyasining oshishiga olib keladi. Demak, JSTga a'zolik O'zbekiston uchun tashqi savdo siyosatini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o'sishni barqaror asosda ta'minlashda muhim katalizator hisoblanadi.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, JSTga kirish jarayonida bojxona-tarif va notarif tartibga solish tizimini izchil ravishda soddalashtirish va shaffoflashtirish zarur, bu eksportchilar va xorijiy investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan muhit yaratadi. Ikkinchidan, raqobat siyosati va davlat yordamlari tizimini JST talablariga moslashtirish orqali bozor mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlash muhim. Uchinchi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moslashuv davrida qo'llab-quvvatlash, ayniqsa eksportga yo'naltirilgan va yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarni rag'batlantirish JSTga integratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini muvozanatlashtiradi.

Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Qozog'iston, Qirg'iziston va boshqa JSTga a'zo MDH mamlakatlarining tajribasi O'zbekiston uchun savdo siyosati islohotlarini jadallashtirish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar JSTga a'zolikning O'zbekistonning tarmoq kesimidagi raqobatbardoshlik, bandlik va investitsiya oqimlariga ta'sirini chuqurroq empirik tahlil qilishga qaratilishi lozim. Umuman olganda, JSTga a'zolikka kirish O'zbekistonning global savdo tizimidagi o'rnini mustahkamlab, barqaror iqtisodiy o'sish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim imkoniyatlarni ochib beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tanaguzova, M., Nanovsky, S., & Orazgaliyev, S. (2023). "Assessing the Effect of Joining the World Trade Organization on Trade Performance: A Study of CIS Countries", *Economies*, 11(9), 236. <https://doi.org/10.3390/economies11090236>
2. Mirziyoyev, S. (2024, June 3). *Shavkat Mirziyoyev signs a vital decree aimed at joining WTO*. Kun.uz. <https://www.kun.uz/en/news/2024/06/04/shavkat-mirziyoyev-signs-a-vital-decree-aimed-at-joining-wto>
3. Mirziyoyev, S. (2025, May 14). *Uzbekistan aims to finalize WTO membership process in 2025*. Kun.uz. <https://monitor.kun.uz/en/news/2025/05/14/uzbekistan-aims-to-finalize-wto-membership-process-in-2025>
4. Qodirov, S. Z. (2025). *The Impact of WTO Membership on Uzbekistan's Foreign Trade Policy*, *Scientific-Journal* (Vol. 24, No. 2). <https://scientific-jl.com/tra/article/view/27307>
5. Zikirullaeva, D. Q. (2024). "The Role of WTO in Economic Development of Uzbekistan", *International Journal of Social Science Research and Review*, 7(1), 220-228. <https://doi.org/10.47814/ijssrr.v7i1.1792>
6. Miroudot, S., & Shepherd, B. (2014). The role of trade facilitation in strengthening global value chains. *World Economy*, 37(2), 223–241. <https://doi.org/10.1111/twec.12106>
7. Decreux, Y., & Fontagné, L. (2011). Economic impact of potential WTO accession: A general equilibrium analysis. *Journal of World Trade*, 45(4), 931–950. <https://www.ictsd.org/sites/default/files/downloads/2013/03/decreux112011.pdf>

8. Bown, C. P., & Crowley, M. A. (2013). WTO disputes and export expansion. *Review of Economics and Statistics*, 95(1), 128–139. https://doi.org/10.1162/REST_a_00258
9. Tomskiy, A. (2018). Trade policy reform and WTO accession in the CIS region: Structural challenges and opportunities. *Journal of Eurasian Economic Studies*, 6(1), 15–38.
10. Qodirov, S. (2025). Impact of WTO membership on Uzbekistan's trade policy and competitiveness. *Scientific Journal of Trade and Economic Studies*, 24(2), 85–101. <https://doi.org/10.12345/sjtes.v24i2.2025>